



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAKTABGA TAYYORALASH

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talim fakulteti 1-bosqich talabasi

...

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233181>

Annotatsiya; Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali maktabga tayyorlashning shakl va usullari va texnologiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali maktabga tayyorlashning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiy faollik, rivojlantirish, maktabga tayyorlash, shakl, usul, texnologiyalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining muhim jihatlaridan biri – ularning ijtimoiy faolligini shakllantirishdir. Ijtimoiy faollik bolaning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini o'rnatishi, o'z fikrini ifodalashi, muammolarni hal qila olishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi kabi qator xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ahamiyati va metodlarini o'rganishga bag'ishlanadi.

Ijtimoiy faollik bolaning atrof muhit bilan faol muloqotga kirishishi o'z fikrini erkin bayon etishi, jamoada o'z o'rnini topishi va ijtimoiy hayotga moslashish jarayonini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy faollik muhim omillardan biridir. Ijtimoiy faollik ularning muloqot qobiliyatini rivojlantirish o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu fazilatlar bolalarning kelajakdagi bilim olish jarayoni va jamiyatga integratsiyalashuviga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa maktabga tayyorgarlik davrida ijtimoiy faollik bolaning o'qituvchilar va tengdoshlar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi. Bola uch yoshga to'lganda uning atrofdegilarga munosabati hamda qiziquvchanligi kuchayadi. Shuningdek bolalarning o'rtoqlari bilan birgalikda faoliyatga kirishish moyilligi oshadi. Bu jarayonda ular hamma ham aynan ular kabi o'ylamasligini tushinishadi. Maktabgacha bolalik davrida bolaning nutqi, tafakkuri faol rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv – bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayondir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash egallaydi. Shaxsiyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi bolalarda axloqiy munosabatlarga kirishish jarayonida sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshda allaqachon ushbu munosabatlar kattalarning ma'lum qoidalari, ko'rsatmalari va yordamlari asosida qurilgan bo'ladi.

Bolalarni ijtimoiylashuvi haqida Vygotskiy L.S quyidagicha fikrlarni aytib o'tgan. Bolalar o'zining fikrlash va o'rganish jarayonlarini ijtimoiy muhitda amalga oshiradilar. Ular kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar orqali bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Vygotskiyning ijtimoiy o'zaro ta'sirining bilim o'zlashtirishda ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra bolalar faqat ijtimoiy va madaniy kontekstda rivojlanadilar.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirish usullari.

O'yin faoliyati – Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy faollikni rivojlantirishning eng samarali usuli ro'li o'yinlar va didaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish - Bolalar suhbatlashish, ularni guruhli mashg'ulotlarga jalb qilish orqali muloqot qobiliyatlari oshiriladi.

Mustaqil fikrlarini qo'llab quvvatlash – Bolalarni mustaqil ravshda qaror qabul qilishlari va o'z fikrlarini ifodalashlari uchun imkoniyat yaratish muhimdir.



Ota-onalar bilan hamkorlik - Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ota-onalarning ro'li katta ahamiyatga ega. Uy sharoitida ham bolalar bilan do'stona muhit yaratish va ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash lozim.

Jamoaviy mashg'ulotlar – Guruh bilan ishlash, sahna ko'rinishlari, qo'shiq va she'r aytish mashg'ulotlari orqali bolalarda jamoa bilan ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu usullar bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

Maktabga tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy faollikning ahamiyati. Maktabga borish bolalar uchun yangi bosqich bo'lib, bunda ularning ijtimoiy jihatdan faol bo'lishi muhim faoliyat kasb etadi. Ijtimoiy faollikka ega bo'lgan bola:

- O'qituvchi va tengdoshlari bilan bemaol muloqot qila oladi.
- O'quv jarayonida faol ishtirok etadi.
- O'z fikrlarini erkin ifoda qila oladi.
- Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish bilan birgalikda ularga psixologik yani emotsional jihatdan ham rivojlantirishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabga tayyorlash jarayoni, psixologik jihatdan juda muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalar o'zlarining hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishlarini boshlaydilar, va ularning maktabga tayyorligi aynan shu psixologik jihatlarning shakllanishiga bog'liq.

Psixologik tayyorgarlikning mohiyati. Psixologik tayyorgarlik, bolalarning maktabda o'qish va o'rganish jarayoniga moslashish uchun zarur bo'lgan ichki tayyorgarlikni anglatadi. Bu tayyorgarlik bolalarning o'z - o'zini boshqarish, o'z hissiyotlarini tushunish va boshqa bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Maktabga borish bolalar uchun yangi tajriba bo'lib, ular yangi tartib-qoidalar, o'qituvchilar, tengdoshlari bilan ishlashni o'rganish kerak. Psixologik tayyorgarlik bolalarga bu jarayonni oson va muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam beradi. O'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorlikda maktabgacha yoshdagi bolalar, o'z hissiyotlarini boshqarishlari kerak. Bolalar o'zlarining hissiy holatlarini tanib, ular bilan ishlashni o'rganishlari zarur. Psixologik tayyorgarlik maktab ta'limi nuqtai-nazardan 1-sinfga borayotgan bolaning psixik rivojlanishdagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffaqiyatli jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqi, bilish faoliyati va tafakkur qobiliyatlarini yetarli va yuqori bo'lishi bolaning aqliy, jismoniy, ijtimoiy rivojlanishining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish va keng darajadagi bilimlarni egallashga yordam beradi. Maktabga psixologik tayyorlanishda bolani o'ziga bo'lgan ishonchi juda muhim ahamiyatga ega. Bulardan tashqari psixologik tayyorgarlikda ota-onalar va tarbiyachilarning qo'llab quvvatlashi juda muhim hisoblanad.

Xulosa sifatida quyidagilarga to'xtalib o'tishni joiz deb bildim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish ularning kelgusidagi o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rishini yengillashtiradi. Ushbu jarayonda pedagoglar, ota-onalar va psixologlarning hamkorligi muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S. "Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi." Moskva, 1984.
2. Jalolov, J. "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi." Toshkent, 2019.
3. Rubinshteyn, S.L. "Umumiy psixologiya asoslari." Moskva, 1976.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" qarori. Toshkent, 2017.
5. Piaget, J. "Bolalar tafakkuri va aql-idroki." Parij, 1969